

**MAHALLIY BUDJETLARNING MOLIYAVIY MUSTAQILLIGINI  
TA'MINLASH VA UNING DAROMAD BAZASI BARQARORLIGIGA  
TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI**

**Raxmonova Shoxista Sherqulovna**

“International school of finance technology and science” institute

2-kurs magistranti

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada mahalliy budjetlarning moliyaviy mustaqilligini ta'minlash masalalari hamda ularning daromad bazasi barqarorligiga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida mahalliy budjetlarning daromad manbalari, budjetlararo munosabatlar tizimi, hududiy budjet siyosati va fuqarolar ishtirokini rivojlantirish masalalari ilmiy jihatdan o'rganildi. Shuningdek, hududiy iqtisodiy rivojlanish, infratuzilma darajasi, demografik omillar, institutsional boshqaruv sifati hamda investitsion muhit kabi bilvosita omillarning mahalliy budjet daromadlari barqarorligiga ta'siri tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari mahalliy budjetlar moliyaviy mustaqilligini kuchaytirish, daromad manbalarini diversifikatsiya qilish hamda hududiy fiskal barqarorlikni ta'minlash bo'yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** mahalliy budjetlar, moliyaviy mustaqillik, budjet daromadlari, hududiy iqtisodiy rivojlanish, fiskal barqarorlik, budjet siyosati, tashabbusli budjet, institutsional boshqaruv, investitsion muhit.

**Kirish**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mahalliy budjetlarning moliyaviy mustaqilligini ta'minlash davlat moliyaviy tizimini rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mahalliy budjetlar hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash, infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish hamda aholining turmush darajasini oshirishda muhim moliyaviy manba sifatida xizmat qiladi. Shu sababli mahalliy budjetlarning daromad bazasini mustahkamlash, ularning moliyaviy vakolatlarini kengaytirish hamda hududiy fiskal barqarorlikni ta'minlash masalalari dolzarb ilmiy ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida mahalliy budjetlar mustaqilligini oshirish, hududlarning iqtisodiy salohiyatini rivojlantirish hamda budjet mablag'laridan samarali foydalanish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Bunda mahalliy budjet daromadlarini shakllantirish manbalarini kengaytirish, budjet

xarajatlarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda fuqarolarning budget jarayonidagi ishtirokini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shu bilan birga, mahalliy budgetlarning moliyaviy barqarorligi ko'p jihatdan hududlarning iqtisodiy rivojlanish darajasi, infratuzilma salohiyati, demografik omillar hamda boshqaruv samaradorligi bilan bog'liqdir. Mazkur omillar mahalliy budget daromadlari shakllanishiga bilvosita ta'sir ko'rsatib, hududiy moliya tizimining barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shu nuqtai nazardan, mahalliy budgetlarning moliyaviy mustaqilligini ta'minlash va ularning daromad bazasi barqarorligiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Mahalliy budgetlarning moliyaviy mustaqilligini ta'minlashda quyidagi jihatlarga e'tibor berilayotganligini alohida ajratib ko'rsatish mumkin bo'ladi. Birinchidan, o'z daromadlar bazasiga ega bo'lish. Bunda hududning daromadlarni shakllantirish manbalariga ega bo'lish salohiyatini aniqlash va uni baholashga e'tibor berish zarurligi ko'rsatib o'tilmoqda.


Ikkinchidan, budget xarajatlari borasida moliyaviy mustaqillik budgetlararo munosabatlar, budget xarajatlarini boshqarishda ochiqlikning ta'minlanishi kabi ustuvor yo'nalishlar e'tiborga molik ekanligi asoslab berilmoqda.

Uchinchidan, hududiy budget siyosatining moliyaviy mustaqilligini ta'minlashda fuqarolar ishtirokini yanada takomillashtirish. Bunda budget xarajatlarini taqsimlashda aholining roli va uning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida keng tushuntirish tadbirlarini amalga oshirish zarurligi taklif etilganligini ko'rish mumkin. Bizningcha, mahalliy budgetlar xarajatlarini taqsimlash va ulardan samarali foydalanishni ta'minlashda hududlarning iqtisodiy xarakterini shakllantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bunda quyidagi jihatlarga e'tibor berish lozim: Birinchidan, umumiy moliyaviy vakolatlarni markaziy va hududiy nuqtai nazardan tizimlashtirish, ularni takrorlanmaslik xususiyatini e'tiborga olish. Shuningdek, ularning taqsimotida davlatchilikning vertikal tuzilishini inobatga olish o'ziga xos xususiyat kasb etadi. Ikkinchidan, mahalliy budgetlarning xarajatlarini taqsimlashda hokimiyat organlarining moliyaviy vakolatlarini moliyaviy mustaqillikni to'liq, qisman va chegaralangan tamoyili asosida joriy etish. Bunda to'liq moliyaviy mustaqillik tamoyili – mahalliy budget mablag'laridan foydalanishda moliyaviy qarorlar qabul qilinishi to'liq mustaqil holda amalga oshirilishini nazarda tutish. Qisman moliyaviy

mustaqillik tamoyili joriy etilishida fuqarolar yoki boshqa manfaatdor sub'ektning moliyaviy qaror qabul qilishdagi ishtirokini nazarda tutish. Chegaralangan moliyaviy vakolatda yuqori turuvchi tashkilotning ko'rsatmalari asosida moliyaviy faoliyatni amalga oshirishni o'zida ifoda etishini e'tiborga olish zarur, deb o'ylaymiz.

Bir so'z bilan aytganda, mahalliy byudjetlarning moliyaviy mustaqilligi unitar davlatlarda ma'lum moliyaviy mezonlar asosida iqtisodiy xarakterini liberallashtirish kabi jihatlarni ifodalashi muhim ahamiyat kasb etadi ekan. Bizningcha, mahalliy byudjetlarning moliyaviy mustaqilligini yanada rivojlantirish va uning sezilarli ta'sirini oshirish uchun moliyaviy qarorlar qabul qilishga doir vakolatlar taqsimotini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, vakolatlar uchligi kategoriyasini joriy etish bilan mahalliy byudjetlar moliyaviy faoliyati mustaqilligini kengaytirishga erishish mumkin bo'ladi, deb o'ylaymiz.




**Mahalliy byudjetlarda moliyaviy mustaqillik komponentlarining tuzilishi**

Shuningdek, uzoq chiziqlar bilan ifodalangan moliyaviy vakolatlar elementlarida mahalliy budjetlarning moliyaviy faoliyatida mustaqillik komponentlarini joriy etish yoki rivojlantirish imkoniyati mavjudligini qayd etish lozim. Masalan, aholining budjet jarayonida mablag'larni taqsimlash bilan bog'liq mikrohududning muammolarini hal etish bilan bog'liq ishtiroki nazarda tutiladi. Boshqacha aytganda, mablag'larni taqsimlashda aholining ishtirokini aniq mezonlar bilan belgilash va uni yanada tartibga solishga qaratilgan tizimni joriy etishni nazarda tutadi. Shu bilan birga, mahalliy budjet ixtiyorida bo'lgan mablag'larning shakllanishi manbasi nuqtai nazaridan ham moliyaviy mustaqillikni joriy etish mumkinligini inobatga olish lozim. Bunda qo'shimcha mablag'lar hisobidan hozirgi kunda 30 foiz, tasdiqlangan mablag'lar kesimida esa 5 foiz ulushda taqsimlash amalga oshirilayotganligini ta'kidlash mumkin (1.2-rasmga qarang). Mahalliy budjetlarning moliyaviy mustaqilligini ta'minlashda budjet daromadlarini tadqiq etish bilan bog'liq bo'lgan ko'plab tadqiqotlar olib borilganligini qayd etish lozim. Mahalliy budjetlarning moliyaviy faoliyatini tashkil etishda ularning moliyaviy qarorlarni qabul qilishi bilan bog'liq bo'lgan ilmiy nazariy qarashlarni tizimlashtirish asosida quyidagi yondashuvlarimizni shakllantirishga muvaffaq bo'ldik: Biriichidan, mahalliy budjetlarning soliq salohiyati daromadlarni boshqarish bilan bog'liq vakolatlarni o'zgartirish bilan o'zaro chambarchas bog'liq ekanligini ta'kidlash lozim. Ikkinchidan, mahalliy budjetlarning moliyaviy mustaqilligini ta'minlashda birlashtirilgan soliqlarning roli sezilarli ta'sirga ega ekanligi ko'plab ilmiy xulosalarda o'z aksini topmoqda. Uchinchidan, mahalliy budjetlarning birlashtirilgan daromadlari tarkibidagi mol-mulk va er solig'ini birlashtirish orqali uni boshqarishni soddalashtirish va u bilan bog'liq moliyaviy siyosatni amalga oshirishda mahalliy hokimiyat organlarining vakolatlarini oshirishga qaratilgan ilmiy qarashlar ilgari surilmoqda. Bundan ko'zlangan maqsad mahalliy kengashlarning moliyaviy siyosatdagi rolini yanada mustahkamlash orqali ta'sir choralari qo'llashga instrumentlarni rivojlantirishga urg'u berilmoqda. Bizningcha, mahalliy budjetlarning moliyaviy mustaqilligi ularning moliyaviy qarorlar qabul qilishidagi vakolatlarning nechog'liq uyg'un bo'lishi bilan ifodalanishi ko'zga tashlanmoqda.

Mahalliy budjetlarning moliyaviy faoliyatida xarajatlar qismida aholining ishtirokiga ustuvorlik berilgan bo'lsa, daromadlar yo'nalishida mahalliy kengashlarning vakolatlarini kengaytirishga qaratilgan ilmiy yondashuvlar ilgari surilmoqda. Bu esa, mahalliy budjetlarning moliyaviy mustaqilligini ta'minlash borasidagi qarashlarni ishlab chiqishda o'ziga xos ahamiyatga ega hisoblanadi. Fiskal balansning davlat budjeti daromadlari va xarajatlari kesimida o'zaro farq ko'rsatkichining YaIMga nisbatan ulushi manfiy raqamlarda yuzaga kelayotganligi

budjet defisitining oshib borayotganligi bilan izohlash mumkin. Unda dunyoning aksariyat davlatlarida budjet defisiti tendensiyalari saqlanib qolayotganligini ko'rish mumkin (2-rasm). Fikrimizcha, jahonda yuz berayotgan geosiyosiy nobarqarorlik mamlakatlarning budjet siyosatida o'zining salbiy aksini ifodalamoqda. Bu esa, budjet defisitining vujudga kelishiga va oqibatda davlat qarziga bo'lgan ehtiyojning ortib borishiga olib kelmoqda. Shu boisdan, davlat budjetining nafaqat makroiqtisodiy miqyosda, balki hududiy nuqtai nazardan ham qayta ko'rib chiqishga bo'lgan zarurat ko'zga tashlanmoqda.



**2019-2022 yillarda jahon mamlakatlarida fiskal balansning YaIMga nisbatan ulushi, foizda**

Manba: OECD countries are facing long-term fiscal pressures. <https://www.oecd.org/en/topics/public-finance-and-budgets.html>

Xalqaro valyuta jamg'armasining yondashuvida davlat budjeti xarajatlarini boshqarishni budjetnomani tayyorlash jarayoni muhim bo'lib, uni ijro qilish davriga nisbatan samaraliroq natija berishini ta'kilab o'tadi. Unga ko'ra, budjet siyosatini ishlab chiquvchilar quyidagilarga e'tibor berishi lozimligi ko'rsatib o'tiladi: budjet qarorlarini qabul qilishning fiskal chegaralarini inobatga olish; budjetni tuzish va amalga oshirishning mas'ullari vakolat doiralari; fundamental bosqichlarning

ahamiyati; budjetni amalga oshirishdagi murakkabliklarni tizimlashtirish va ularni bartaraf etish yo'nalishlari; budjet siyosatidagi o'zgarishlarni oldindan belgilash va amalga oshirishni aniqlash kabi jihatlarni e'tiborga olish tavsiya etilganligini ko'rish mumkin. Fikrimizcha, mahalliy budjetlar moliyaviy faoliyatida tashabbusli budjetlarni yanada kengaytirish va unda quyidagi jihatlarni e'tiborga olish muhim hisoblanadi, deb o'ylaymiz: Birinchidan, mahalliy budjetlar faoliyatida muzokalar komponentini rivojlantirishda fuqarolar – mahalliy hokimiyat – markaziy hokimiyat uchlik majmuini e'tiborga olish maqsadga muvofiq. Bunda mahalliy budjetlar moliyaviy faoliyatiga nisbatan “o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanati” tizimini qat'iy amalga oshirishni nazarda tutish.

Ikkinchidan, mahalliy budjetlar moliyaviy faoliyatiga doir axborotlar shaffofligi va vakolatli moliya tashkilotlarining hisobdorligi ta'minlash mezonlarini joriy etish. Bunda amalga oshirilishi rejalashtirilgan dastur va choraklik nuqtai nazardan ma'lumotlarni taqdim etib borishga erishish lozim bo'ladi.

Bunda Mahalliy budjetlar daromad bazalari barqarorligiga bilvosita ta'sir etuvchi omillar asosan hududning iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional rivojlanish jarayonlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular davlat moliyasi tizimining umumiy samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bunday omillar bevosita soliqlar yoki to'g'ridan-to'g'ri moliyaviy oqimlar orqali daromadlarni oshirishga qaratilgan bo'lmasa-da, ular mahalliy budjetlarning resurs bazasini mustahkamlash, iqtisodiy faollikni rag'batlantirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Quyida ushbu omillar chuqur tahlil qilinadi.

Birinchidan, hududiy iqtisodiy o'sish sur'atlari mahalliy daromadlar barqarorligining muhim ko'rsatkichidir. Mahalliy ishlab chiqarish hajmi ortishi, kichik biznes subyektlarining ko'payishi, eksport-import faoliyatining kengayishi va xizmatlar sektorining rivojlanishi mahalliy budjetga tushadigan bilvosita tushumlarni oshiradi. Bu jarayonda, yangi ish o'rinlari yaratilishi va aholi daromadlarining o'sishi natijasida soliqqa tortish bazasi kengayadi, natijada bevosita soliqlar hajmi oshadi. Shu bilan birga, hududning investitsion jozibadorligi ortishi ham kelgusida daromad manbalarini diversifikatsiya qilish imkonini beradi.

Ikkinchidan, infratuzilma rivojlanishi ham bilvosita omillar sirasiga kiradi. Transport, energetika, aloqa va kommunal infratuzilmaning yaxshilanishi hududda iqtisodiy faoliyatni faollashtirib, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi. Bu esa yangi korxonalar ochilishi va mavjud korxonalarining ishlab chiqarish hajmini kengaytirishiga olib keladi. Natijada mahalliy budjetga tushadigan bilvosita soliqlar (QQS, foyda solig'i, aksizlar) hajmi ortadi.

Uchinchidan, aholining demografik o'zgarishlari va mehnat resurslari tarkibi ham daromad bazasiga ta'sir qiladi. Ishchi yoshdagi aholi ulushining ortishi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish hajmining o'sishiga yordam beradi, bu esa yangi soliqqa tortiladigan obyektlar paydo bo'lishiga olib keladi. Boshqa tomondan, aholining iste'mol xarajatlari oshishi bilan savdo aylanmasi kengayadi, bu esa bilvosita soliqlarni ko'paytiradi.

To'rtinchidan, institutsional va boshqaruv sifatining yuksalishi ham bilvosita ta'sir etuvchi omillar jumlasiga kiradi. Mahalliy boshqaruv organlarining shaffofligi, korrupsiyaning kamayishi, soliqlarni yig'ish samaradorligi va budget mablag'larining oqilona taqsimlanishi investitsion muhitni yaxshilaydi. Bu jarayon iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirib, natijada daromad manbalari barqarorligini oshiradi.

Beshinchidan, hududiy tabiiy resurslar va ularni qayta ishlash imkoniyatlari ham bilvosita ahamiyatga ega. Tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish, ularni eksport qilish yoki ichki bozorni ta'minlash orqali hududning iqtisodiy salohiyati ortadi, bu esa budgetga qo'shimcha tushumlarni ta'minlaydi.

Oltinchidan, ta'lim va malaka oshirish tizimining rivojlanishi ham muhimdir. Malakali ishchi kuchi mavjudligi yuqori samarali ishlab chiqarish tarmoqlarining rivojlanishiga imkon beradi, bu esa o'z navbatida daromad bazasini mustahkamlaydi.

Bir so'z bilan aytganda, mahalliy budgetlar daromad bazalari barqarorligiga bilvosita ta'sir etuvchi omillar turli sohalarni qamrab oladi va ular o'zaro uzviy bog'liq. Iqtisodiy o'sish, infratuzilma, demografiya, boshqaruv sifati, tabiiy resurslardan foydalanish va inson kapitalining rivojlanishi — bularning barchasi mahalliy moliya tizimining barqarorligi va uzluksizligi uchun zaruriy shartlardir. Shu sababli, mahalliy hokimiyat organlari ushbu omillarni kompleks ravishda tahlil qilib, ularni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishlari lozim.

### **Xulosa**

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mahalliy budgetlarning moliyaviy mustaqilligini ta'minlash hududiy iqtisodiy rivojlanish va fiskal barqarorlikni mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi. Mahalliy budgetlar daromad bazasining barqarorligi ko'p jihatdan hududlarning iqtisodiy faolligi, infratuzilma rivojlanish darajasi, investitsion muhit, demografik omillar hamda boshqaruv tizimining samaradorligi bilan chambarchas bog'liqdir.

Mahalliy budgetlar moliyaviy faoliyatini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, hududlarda iqtisodiy o'sish sur'atlarining oshishi, kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi hamda yangi ish o'rinlarining yaratilishi soliqqa tortish bazasining kengayishiga olib keladi. Natijada mahalliy budget daromadlari barqarorligi ta'minlanadi.

Shuningdek, transport, energetika va kommunikatsiya infratuzilmasining rivojlanishi hududlarda iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirib, ishlab chiqarish hajmining oshishiga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida mahalliy budjetlarga tushadigan soliq tushumlarini ko'paytirishga yordam beradi.

Mahalliy budjetlarning moliyaviy mustaqilligini yanada rivojlantirish uchun budjet daromadlarini diversifikatsiya qilish, mahalliy hokimiyat organlarining moliyaviy vakolatlarini kengaytirish hamda budjet jarayonida fuqarolar ishtirokini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, tashabbusli budjet tizimini rivojlantirish orqali mahalliy hokimiyat organlari va aholi o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish ham hududiy moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, mahalliy budjetlarning moliyaviy mustaqilligini ta'minlash davlat moliyaviy siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, u hududiy iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy infratuzilma taraqqiyoti hamda aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Usmonov Q.A. Budjet daromadlarini prognozlashtirish metodologiyasi. // Moliyaviy tahlil jurnali, 2022, №3.
2. Musgrave R. The Theory of Public Finance. – New York: McGraw-Hill, 1959.
3. Keynes J.M. The General Theory of Employment, Interest and Money. – London: Macmillan, 1936.
4. Balassone F., Franco D. Public Investment, the Stability Pact and the 'Golden Rule'. – Fiscal Studies, 2000.
5. Boyne G.A. Sources of Public Service Improvement. – Public Administration Review, 2002.
6. Burnside C. Fiscal Sustainability in Theory and Practice. – World Bank Policy Research Paper, 2005.
7. Levina V.V., Nikitkova U.O. Finansovaya ustoychivost byudzheta. – Moskva, 2019.